

QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARINING 2017-2020 YILDAGI STATISTIK KO'RSATKICHLARI

Shuhratbek Qo'ziboyev Tursunaliyevich

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti

“Dehqonchilik va o'rmon melioratsiyasi” kafedrasida katta o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7335513>

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston qishloq xo'jalik yerlarining 2017-2020 yillarda o'zgarish ko'rsatkichlari. Bu yillar davomida ekin turlari maydoni kengaygani va aksincha ma'lum bir ekin turlarini ekish maydonlari qisqarib borayotganligi haqida aniq statistik ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, asosiy qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirishning necha barobarga oshganligi haqida ham ma'lumotlar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: qishloq xo'jaligi, o'sish sur'atlari, donli ekinlar, fermer xo'jaliklari, yillar kesimida, texnik ekinlar, go'sht-sut mahsulotlari.

СТАТИСТИЧЕСКИЕ ПОКАЗАТЕЛИ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННОЙ ПРОДУКЦИИ В 2017-2020 ГГ.

Аннотация. В данной статье приведены показатели изменения площади сельскохозяйственных угодий Узбекистана в 2017-2020 г. За эти годы расширились площади видов сельскохозяйственных культур и, наоборот, площади посевов отдельных видов культур. Приведены также сведения о том, во сколько раз увеличилось производство основных сельскохозяйственных продуктов.

Ключевые слова: сельское хозяйство, темпы роста, зерновые культуры, хозяйства, разрез лет, технические культуры, мясная и молочная продукция.

STATISTICAL INDICATORS OF THE AGRICULTURAL PRODUCTS IN 2017-2020

Abstract. In this article, the indicators of changes in the agricultural land of Uzbekistan in 2017-2020. During these years, specific statistical information is given about the expansion of the area of crop types and, on the contrary, the decrease of the area of planting certain types of crops. Information was also given about how many times the production of basic agricultural products has increased.

Keywords: agriculture, growth rates, grain crops, farms, cross-section of years, technical crops, meat and dairy products.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil

28-yanvar kuni Oliy Majlisga qilgan murojaatnomasida shunday degan: Iqtisodiyotimiz rivojini, aholi bandligi va daromadlari o'sishini ta'minlaydigan eng muhim sohalardan biri bo'lgan qishloq xo'jaligini strategik yondashuvlar asosida taraqqiy ettirish zarur. Tarmoqdagi hozirgi o'sish sur'atlari bizni mutlaqo qoniqtirmaydi. Bu borada bozor mexanizmlarini keng joriy etib, fermer va dehqonlar manfaatdorligini oshirmas ekanmiz, biz kutgan sezilarli o'zgarish bo'maydi deganlar. Shuning uchun hozirgi vaqtda dehqon va fermer xo'jaliklariga har tomonlama yengilliklar va imtiyozlar berilmoqda. Buning negizida qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish va uni chetga eksport qilish hajmi ham ortib bormoqda.

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Qishloq xo'jalik mahsulotlari amaldagi narxlari yillar kesimida berilgan.

2017-yil 3 mlrd 464 mln 900 ming dollar
2018-yil 5 mlrd 224 mln 300 ming dollar
2019-yil 8 mlrd 262 mln 500 ming dollar
2020-yil 10 mlrd 612 mln 800 ming dollar

Bu raqamlardan ko'rinib turibdiki, yillar davomida qishloq xo'jalik mahsulotlarini olish hajmi ijobiy tarzda o'sib bormoqda.

TADQIQOT NATIJALARI

Jami ekin ekilgan maydonlar gektar hisobida yillar kesimida tahlil qilinganda quyidagi ko'rsatkichni ko'rsatadi.

2017-yil 90.6 ming gektar
2018-yil 149.2 ming gektar
2019-yil 213.3 ming gektar
2020-yil 378.5 ming gektar

Shu jumladan Qishloq xo'jaligi yerlarida donli ekinlar maydoni quyidagicha:

2017-yil 43.2 ming gektar
2018-yil 65.1 ming gektar
2019-yil 82.0 ming gektar
2020-yil 173.9 ming gektar

Qishloq xo'jalik yerlarida texnik ekinlar maydoni quyidagicha:

2017-yil 13.6 ming gektar
2018-yil 46.3 ming gektar
2019-yil 84.5 ming gektar
2020-yil 156.2 ming gektar

Shundan paxta ekin maydonining o'zgarib borishi:

2017-yil 9.1 ming gektar
2018-yil 39.5 ming gektar
2019-yil 77.7 ming gektar
2020-yil 146.3 ming gektar

Kartoshka ekin maydonlari ko'rsatkichlari:

2017-yil 1.1 ming gektar
2018-yil 1.2 ming gektar
2019-yil 2.1 ming gektar
2020-yil 1.8 ming gektar

Sabzavotlar ekin maydoni ko'rsatkichlari:

2017-yil 4.9 ming gektar
2018-yil 7.6 ming gektar
2019-yil 8.3 ming gektar
2020-yil 7.6 ming gektar

Oziqbop poliz ekinlari maydoni ko'rsatkichlari:

2017-yil 2.5 ming gektar
2018-yil 2.5 ming gektar
2019-yil 2.5 ming gektar
2020-yil 4.0 ming gektar

Ozuqa ekinlari yer maydonlari ko'rsatkichlari:

2017-yil 24.5 ming gektar

2018-yil 26.0 ming gektar

2019-yil 33.6 ming gektar

2020-yil 35.0 ming gektar

O'zbekiston Respublikasida band aholining 27.3 foizi qishloq xo'jaligi sohasiga to'g'ri keladi.

MUHOKAMA

2017-yilda 2000-yilga nisbatan taqqoslaydigan bo'lsak, g'alla yetishtirish 2 marta, kartoshka 4 marta, sabzavot 4,3 marta, go'sht va sut 3 marta, uzum 2,7 marta, tuxum 4,8 martaga oshdi.

Mustaqillikka qadar jami qishloq xo'jalik yerlarini atigi 20 foiziga yaqiniga donli ekinlar ekilgan bo'lsa, hozirgi vaqtda bu ko'rsatkich 50 foizdan oshdi. Natijada mamlakatimiz don mustaqilligini qo'lga kiritdi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, yurtimizda aholi soni ortib borgani va sanoatning rivojlanib borayotganligi, yildan yilga qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan talabning ortishiga sabab bo'lmoqda. Buning natijasida qishloq xo'jalik yerlarini maydonini kengaytirish, shuningdek, maydon birligida ekinlarning yuqori hosil beruvchi navlarini yaratish va ularni amaliyotga tadbiiq etish kabi dolzarb vazifalar turibdi. O'zbekistonda qishloq xo'jaligini yuritish tez sur'atlarda intensiv yo'lga o'tilsa, bu albatta mehnat omilining kamayishi, texnika xizmatidan foydalanishni ortishi, hosildorlikni yuqori natijalarda olish va ichki ehtiyojni qondirib, jahon bozoriga katta miqdorda mahsulotlarni eksport qilishga olib keladi.

REFERENCES

1. O'zbekiston respublikasi davlat statistikasi qo'mitasi
2. Ismailovich S. A. Socio-Psychological Problems of Educating an Independent-Minded, Creative Person in the Educational Process //CENTRAL ASIAN JOURNAL OF LITERATURE, PHILOSOPHY AND CULTURE. – 2021. – T. 2. – №. 12. – С. 4-7.
3. Саидов А., Джураев Р. Баркамол авлодни тарбиялаш-соғлом турмуш тарзини шакллантиришда спортнинг ўрни //Общество и инновации. – 2021. – Т. 2. – №. 2. – С. 203-208.
4. Саидов А. pedagogik mahorat: ёшлар ўртасида соғлом турмуш тарзини шакллантириш устувор вазифа сифатида //центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2020. – Т. 2. – №. 2.